

QASHQADARYO SHEVALARIDA LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK KENGAYISHI

Ravshanova Feruza Murodullayevna

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti ilmiy xodimi
ravshanovaf24@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasiga xos sheva so‘zlari va ularning o‘zbek adabiy tilidan farqlanuvchi leksik, semantik hamda funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Chiroqchi, Qarshi, G‘uzor, Dehqonobod, Kasbi, Ko‘kdala hududlarida qo‘llanadigan ayrim qarindoshlik terminlarining adabiy tildan farqli semantik yuklamalari va lingvomadaniy ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Sheva birliklarining adabiy tilni boyitishdagi imkoniyatlari aniq misollar orqali ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются диалектные слова, характерные для Кашкадарьинской долины, а также их лексические, семантические и функциональные особенности, отличающиеся от норм узбекского литературного языка. В частности, на научной основе рассматриваются семантические нагрузки и лингвокультурное значение отдельных терминов родства, употребляемых в районах Чиракчи, Карши, Гузар, Дехканабад, Касби и Кокдала. Возможности диалектных единиц в обогащении узбекского литературного языка раскрываются на конкретных примерах.

Kalit so‘zlar: sheva, leksika, semantika, fonetika, adabiy til, sheva so‘zlari, leksik qatlam.

Ключевые слова: диалект, лексика, семантика, фонетика, литературный язык, диалектные слова, лексический слой.

Har bir xalqning shakllanish jarayonida kishilar dastlab ma’lum bir guruh, jamoa shaklida sheva, lahjadan foydalangan holda muloqot qilganlar. Keyinchalik ijtimoiy hayotning o‘zgarishi, kishilarning qabila, qabila ittifoqi, muayyan xalq shaklida

birlashishlari natijasida shevalar lahjalarga, lahjalar birlashib mustaqil tilga aylangan va bu til muayyan xalq vakillari uchun umumiy muloqot vositasi bo‘lib xizmat qilgan.¹ Demak, har qanday til shevalar zahirida shakllanadi va boyib boradi.

Adabiy tilni shevalar asosida boyib borishi xususida Sh.Shoabdurahmonovning “So‘z xazinasi” nomli maqolasida quyidagicha izohlaydi. “O‘zbek shevalarida adabiy tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan minglab so‘zlar bor.”² Ushbu fikr o‘rinli va asosli bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Garchi mazkur qarash bir necha yil avval ilgari surilgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiy tilini shevalar negizida boyitishga qaratilgan amaliy ishlar hozirgi davrda ham izchil davom etib kelmoqda.

Qashqadaryo shevasida ham qo‘llanadigan ko‘plab so‘zlar adabiy tilda mavjud bo‘lmagan ma’nolarni ifodalaydi yoki adabiy til uchun muqobil bo‘lishi mumkin bo‘lgan yangi semantik imkoniyatlarini namoyon qiladi. Masalan, bobo so‘zini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 3 xil ma’nosi ifodalangan. Birinchisi otaning yoki onaning otasi (nabiraga nisbatan). *Bola bobosini ikki-uch kun ko‘rmay ichikib qolgan.* Ikkinchi ma’nosi (faqat ko‘pl. shaklida) o‘tmishda yashab o‘tgan qarindosh kishilar, ajdodlar. *Agar Bobur mirzo Samarqandni tezroq egallamasalar, bobolardan qolgan saltanat begona sulola ilkiga o‘tib ketgusidur.* Uchinchi ma’noda hurmat yuzasidan qariyalar nomiga qo‘shib ishlatiladi. *Rais bobo ularning yonginasiga kelib, otdan tushdi, to‘riq yurg‘ani o‘z holiga qo‘yib, dasturxon yoniga horg‘in cho‘kdi*³. Yuqoridagi izohlarda ota-onaning otasi, yoshi katta kishilarga nisbatan hurmat ma’nosida ifodalangan. Qashqadaryo shevasida bobo so‘zi amaki so‘zi bilan sinonimlik vazifasini bajaradi. Otaning eng katta akasiga nisbatan bobo deb atash holati uchraydi. Bobo so‘zini hamma amakilarga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Ya’ni, bolaning eng katta amakisi u uchun bobo bo‘lishi mumkin. *Bobo bugun Miryoqub bobamlanikiga boramizmi? Yo‘q, Miryoqubni o‘zi keladi.*

¹ Y.Odilov va boshqalar. Sotsiolingvistika monografiya. – Toshkent. 2024. – B.277.

² Шоабдурахмонов Ш. Сўз хазинаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент.1993.5-6 сон. 26-бет.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2022. 511-bet.

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani shevasida qarindoshlik terminlari tizimi adabiy tildagidan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Xususan, adabiy til me'yorida *yanga*, *checha* so'zlari o'rnida *kelinoyi* leksemasi qo'llanadi. Biroq Chiroqchi tumani shevasida ushbu ma'noni ifodalashda *moma* so'zining qo'llanishi kuzatiladi. Mazkur birlik umumxalq tilida mavjud bo'lgan *moma* so'zidan semantik jihatdan farqlanib, yangi ma'no kasb etgan shevaga xos leksik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Shevada *moma* so'zi asosan birinchi kelin, ya'ni katta yangaga nisbatan qo'llanadi. Bu holatda so'z faqat qarindoshlik munosabatini emas, balki kelinning oiladagi ijtimoiy mavqeyi va maqomini ham bildiradi. Yuqorida berilgan *bobo* so'zi ham faqat eng katta amakiga nisbatan qo'llanishi ifodalangan edi. Demak, *bobo* va *moma* so'zlari ham oiladagi ijtimoiy maqomni ifodalaydi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu holat sheva leksikasida semantik kengayish va funksional ko'chish jarayonining mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, dastlab boshqa qarindoshlik munosabatini bildirgan so'z muayyan hududiy-madaniy sharoit ta'sirida yangi referentga nisbatan qo'llanila boshlagan. Natijada *moma* leksemasi Chiroqchi tumani shevasida o'ziga xos semantik variantni hosil qilgan.

Mazkur birlikning qo'llanishi lingvomadaniy jihatdan ham muhimdir. Chunki *moma* so'zi orqali nafaqat qarindoshlik munosabati, balki mazkur hududga xos oilaviy urf-odatlar, kelin maqomiga beriladigan e'tibor va an'anaviy marosimlar ifodalanadi. Shunday qilib, *moma* leksemasi Chiroqchi tumani shevasida hududiy identifikatsiya qiluvchi lingvistik birlik sifatida namoyon bo'lib, o'sha hudud nutq egalarining madaniy va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi.

Xullas, Qashqadaryo, xususan, Chiroqchi tumani shevasida *bobo* va *moma* kabi so'zlarning adabiy tildan farqli ma'nolarda qo'llanishi hududiy leksikaning boyligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu birliklar adabiy til va sheva o'rtasidagi semantik hamda uslubiy tafovutlarni ochib berish bilan birga, o'zbek tilining ichki rivojlanish mexanizmlarini anglashda muhim manba hisoblanadi. Shu bois Qashqadaryo shevalarini tizimli o'rganish o'zbek shevashunosligi va lingvomadaniyatshunosligi uchun dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Y.Odilov va boshqalar. Sotsiolingvistika monografiya. – Toshkent. 2024. – B.277.
2. Шоабдурахмонов Ш. Сўз хазинаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент.1993.5-6 сон. 26-бет.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2022. 511-bet.